

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARGA G‘AMXO‘RLIK MASALASI TARIXIY TALQINDA

Shamsiyeva M.X.

Farg‘ona davlat universiteti, tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent.

E-mail: shamsiyeva69@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarga g‘amxo‘rlik qilish ma’naviy qadriyatlarimizning tarkibiy va ajralmas qismiga aylanib ketganligi tarixiy yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: nogiron, imkoniyati cheklangan shaxs, g‘amxo‘rlik, Avesto, Qur’oni Karim, Amir Temur, konvensiya.

АННОТАЦИЯ

В этой статье на основе исторического подхода объясняется, что забота о людях с ограниченными возможностями стала неотъемлемой частью наших моральных ценностей.

Ключевые слова: инвалид, люди с ограниченными возможностями, забота, Авеста, Священный Коран, Амир Темур, конвенция

ABSTRACT

This article takes a historical approach to explain how caring for people with disabilities has become an integral part of our moral values.

Keywords: disabled person, people with disabilities, care, Avesta, Holy Koran, Amir Temur, convention.

Oramizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma’naviyati yuksak, ruhi esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘pincha ishlash, ta’lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqyosida tahminan 1 milliard nafarni tashkil etadi [1:1]. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas’uliyat davlat zimmasiga tushadi.

Ta'kidlash joizki, nogironligi bo'lganlarga g'amxo'rlik, nogironlikning oldini olish, uni davolash masalalari har bir xalqning mentalitetidan, davr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli davrlarda turlicha xarakter kasb etgan.

Ilk yozma manbalardan biri "Avesto"da ham nogironlik masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Avestoning "Vendidad" qismida Axuramazda barpo etayotgan utopiya mamlakati "Nogironlik, kasallik, aqli zaifliklardan xoli jannat" deb, ahloqsizlik va aqli zaiflik esa Angra manyuga, ya'ni, zulmat sanamiga taaluqli deb qaralgan [2:78-79]. Avestoda nogironlikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish uchun nasning asl bo'lishi omillariga ham alohida ahamiyat berilgan.

Xususan, unda oila quradigan yigit va qizlarning har jihatdan benuqson, sog'lom bo'lishi hisobga olingan, homilador ayollar iztirob chekmasligi, asabiylashmasligi, ko'proq meva, go'sht iste'mol qilishi, faqat halol mehnat evaziga topilgan rizqni yeishi uqtirilgan.

O'rta asrlardan boshlab ma'naviy qadriyatlarimizning tarkibiy va ajralmas qismiga aylanib ketgan islom dinida nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan g'amxo'rlik masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Muqaddas Qur'oni Karimning «Baqara» surasida imkoniyati cheklangan shaxslarning mulkiy munosabat doirasida huquqlari asoslab qo'yilgan. Jumladan, "Ey mo'minlar, bir-biringiz bilan qarz muomalasini qilsangiz yozib qo'yinglar, orangizda bir kotib adolat bilan yozsin, agar zimmasida qarzi bo'lgan kishi aqlsiz yo'jiz (yosh bola, yo'juda keksa) bolsa yoki, (kar-soqovligi, yo'til bilmaligi sababli) aytib turib yozdirishga qodir bo'lmasa, uning homiy vakili adolat bilan yozdirsin. Va sizlar rozi bo'ladigan (adolatli guvohlardan ikki erkak kishini, agar ikki erkak kishi topilmasa bir erkak va ikki ayolni (biri unutib adashsa, biri unga eslatadi) guvoh qilinglar» [3:15] deyilgan. Qur'oni Karim imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy himoyasi ularning mulk oldi-berdi shartnomasidagi huquqlarini ta'minlovchi birinchi yuridik hujjat hisoblanadi.

Buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriyning mashhur "Al-Jomi as-Sahih" nomli asarida "Zaiflar bilan xushmuomila bo'lish kerakligi" uqtirilgan [4:70].

O'rta asrlar davlatchiligi boshqaruvida dasturuamal bo'lib xizmat qilgan Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida "Odil podshohlar hamisha zaiflar haqida o'ylaydilar va ular mamlakat zarurati uchun har ikki-uch yilda muqatte'larning ishlarini taftish qilishlari shartdir, muqatte'lar raiyat haqiga ko'z olaytirmasınlar, viloyat obod va ma'mur bo'lsin" [5: 44] deb ta'kidlangan.

O'rta asrlarda ijod qilgan tarixchilarning guvohlik berishicha, nochorlar va nogironlar holidan xabar olish o'sha davr hukmdorlari siyosatining asosini tashkil qilgan. Xususan, Amir Temur va Temuriylar davrida insonparvarlik va mehr-shafqat tamoyillari asosida ish ko'rilganligi tarixiy asarlarda o'z aksini topgan.

Amir Temur nochorlar orasida nogironlar va zaiflar haqida ham alohida

g‘amxo‘rlik qilgan. Bu haqida Temur tuzuklarida shunday ko‘rsatilgan: «Amr etdimki... faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol ko‘rlarga nafaqa belgilansin... Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to‘plab, kundalik yemish, ichishlarini berib, ularga biron vazifa belgilansin. Hamda barchasi tamg‘alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Yana amr etdimki, kattayu-kichik har bir shahar, har bir qishloqqa masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxonalar, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan joy g‘aribxona, keksalar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar” [6: 67].

XVII asrdan to XX asrning birinchi choragigacha bo‘lgan davrda imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy himoyasiga doir ma’lumotlarni ana shu davrda yashagan ba’zi shoirlar, davlat, ilm-fan arboblarining asarlarida, shuningdek, tarixnavislik janridagi kitoblarda va boshqa tanqidiy-tavsifiy asarlarda uchratish mumkin. Jumladan, Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe”, Mahmud Ibn Valining “Bahr ul-asror fi manaqib ul-ahyor” (“Olijanob kishilarning shon- shavkati haqida sirlar dengizi”), Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Abdulg‘ozzi Bahodirxonning “Shajarai Turk”, Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk”, Muhammad Amin Buxoriyning “Muhit ut-tavorix”, Mullo Yunusjon Munshiyning “Amir lashkar Alimqul tarixi” asarlarida adolatli hukmdor siymolari va ularning aholining nochor qatlamlariga, xususan imkoniyati cheklanganlarga g‘amxo‘rlik munosabatlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan [7:26].

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, jahon hamjamiyatida ijtimoiy dunyoqarashning o‘zgarishi natijasida inson omili ustuvor ahamiyat kasb etgan bir sharoitda imkoniyati cheklangan shaxslarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi.

Ushbu davrda 1948-yilda Angliyaning Stok-Mandevil reabilitatsiya gospitali vrachi Lyudvig Guttman tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun Parallimpiya sportiga asos solinishi tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Dastlab “Stok Mandevil nogironlar aravachasi o‘yinlari” o‘tkazilib, keyinroq, 1976-yildan boshlab, ilk qishki va yozgi Paralimpiya o‘yinlari tashkil etildi. Unda 40 ta mamlakatdan 1600 nafarga yaqin sportchilar qatnashdi. Shunday qilib, dastlab nogironlarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan musobaqa yuqori darajadagi sport tadbiriga aylandi. 1989-yilga kelib esa Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi (IPC) tashkil etildi. Lyudvig Guttman o‘zining hayrli ishlari bois “imkoniyat cheklangan sportchilarning otasi” degan nom oldi [8].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining 15 foizini nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil qiladi, bugungi kunda ularning soni 1 milliardga yetgan [9].

Shuni ta'kidlash mumkinki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi (2006 yil 13-dekabr) Konvensiya dunyodagi nogironligi bo'lgan shaxslar Konstitutsiyasi sifatida e'tirof etilgan. Konvensiya asosida BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mita a'zolari 18 kishidan iborat. Bugungi kunga qadar konvensiyani BMTning 193 a'zo davlatidan 184 tasi ratifikatsiya qilgan [10].

Konvensiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan, ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalananish, ta'lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo'sh vaqt ni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zlarini va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan. Ushbu huquqlarni amalga oshirishning kafolatlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjati bilan tartibga solinmoqda. Bu o'rinda Konstitutsiya, 40 dan ziyod qonun va 160 dan ortiq qonunosti hujjat ko'zda tutilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida himoya qilish asosida qanday vaziyat bo'lishidan qat'i nazar insonni, shu jumladan nogironligi borligi tufayli kamsitmaslik prinsipi yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. [https://ombudsman.uz/oz/docs/nogironligi-bolgan-shaxslarga-teng imkoniyatlar-yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim](https://ombudsman.uz/oz/docs/nogironligi-bolgan-shaxslarga-teng_imkoniyatlar-yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim).
2. Маҳмудова Г.Т., Арифханова С.М. Зардуштийлик фалсафаси, – Тошкент: 2014. – Б. 78-79.
3. Қуръони карим (Алоуддин Мансур таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 33
4. Аҳлоқ-одобга оид ҳадис намуналари.– Тошкент: Фан, 1990.–
5. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Иккинчи тўлдирилган, қайта ишланган нашри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 44.
6. Темур тузуклари. – Тошкент: F.Ғулом нашриёти, 1991. – Б. 67
7. Ҳолиқулова Ҳ.Ю. Ўзбекистонда имконияти чекланган шахсларни ҳимоя қилиш сиёсати (1991-2014 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори. Дисс..2018.–Б.26.
8. <http://sports.uz. > news > view >par.../Паралимпия ўйинлари тарихини биласизми? У аслида ҳарбийлар...>
9. [http://nhrc.uz/oz/news/m8837/Yangi O'zbekiston – har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan ijtimoiy davlat va adolatli jamiyatdir.](http://nhrc.uz/oz/news/m8837/Yangi_O'zbekiston – har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan ijtimoiy davlat va adolatli jamiyatdir)
10. <http://uza.uz > posts >dunyoda-1/Dunyoda 1 milliarddan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar>